

**O'QUVCHI-YOSHLARDA OILAGA NISBATAN QADRIYATLI
MUNOSABAT TAJRIBASINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAViy-AXLOQIY
TARBIYANING O'RNI**

Xaydarov Oxunjon Murodjonovich

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchi-yoshlarda oilaviy qadriyatlar asosida ong va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni yoritiladi. Oila institutining jamiyatdagi ahamiyati, o'zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlari asosida yoshlarda vatanparvarlik, hurmat, mehr-oqibat, sabr-toqat kabi fazilatlarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, o'quvchilar orasida oilaviy qadriyatlarga nisbatan e'tiborni kuchaytirishning pedagogik va psixologik usullari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, ma'naviy tarbiya, axloq, yoshlar, mas'uliyat, milliy g'oya, ta'lim-tarbiya

Annotation: This article explores the role of spiritual and moral education in shaping a conscious and responsible attitude among students toward family values. It emphasizes the importance of the family institution in society and the need to nurture qualities such as patriotism, respect, compassion, and patience among youth based on Uzbekistan's historical and national values. The article also analyzes pedagogical and psychological methods to enhance students' awareness and appreciation of family values.

Keywords: Family, values, spiritual education, ethics, youth, responsibility, national idea, upbringing

Аннотация: В данной статье рассматривается роль духовно-нравственного воспитания в формировании у студенческой молодежи осознанного и ответственного отношения к семейным ценностям. Подчеркивается значение института семьи в обществе, необходимость воспитания у молодежи таких качеств, как патриотизм, уважение, милосердие и терпение на основе исторических и национальных ценностей узбекского народа. Также анализируются педагогические и психологические методы повышения интереса учащихся к семейным ценностям.

Ключевые слова: Семья, ценности, духовное воспитание, нравственность, молодежь, ответственность, национальная идея, воспитание

Insoniyat qadimdan hayotdagi eng yaxshi jihatlarni, ya'ni axloqiy sifatlarni, hayot saboqlarini, bola tarbiyasiga oid tajribalarni, farovon turmush tarzini, oila yuritishning samarali usullarini avlodlardan avlodga meros sifatida o'tkazib kelganlar. Ular asosan turmush, ijtimoiy hayot, mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, asta-sekin an'ana tarzida

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

keyingi avlodlar uchun hayot sabog'i vazifasini o'taydi. Oilada yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda ayniqsa, an'analar, urf-odatlar va turli marosimlar tarbiya vositasi sifatida ahamiyati kattadir. Zero, milliy an'ana – donishmandlik manbai, hayot sabog'idir. Shuning uchun ham qadimgi Sharqona uslubdagi madaniy marosimlar, an'analar va urf-odatlarimizni qadrlash, ular misolida farzandlarni tarbiyalash, hozirgi mustaqillik sharoitidagi turmush ko'rkamroq qilishda, milliy qiyofani shakllantirishda farzand qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik millatparvarlik hissiyotlarini tarbiyalashda muhim, omildir. O'zbek xalqining milliy an'analari urf-odatlari va marosimlari avloddan-avlodga, bobodan-otaga, otadan-bolaga o'tib yoshlarni har tomonlama komil inson sifatida shakllantirishda oilada ota-onalarga tarbiya vositasi sifatida xizmat qilib kelgan.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatni shakllantirish masalasida asosiy mezon sifatida quyidagilar belgilanadi: pedagogika fanida oila va oilaviy tarbiyaning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish; yangi ijtimoiy sharoitda mustaqil fikrlaydigan shaxslarni oilada shakllantirish yo'llarini belgilash; oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarixiylik nuqtai nazaridan yondashib, ma'naviy-axloqiy tizim yaratish; yangi tarixiy sharoitda oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning mezonlari: vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, milliy ong, milliy tarbiyani o'z-o'zini anglash tarzida ifodalaydi [1].

Ma'lumki, milliy axloq milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. O'zbek oilasida bolalarni oilaviy hayotga tarbiyalashga tarixan tarkib topgan an'analar, urf-odatlar, maishiy turmush tarzi, millat psixologiyasidan kelib chiqqan holda yondashiladi. M.Inomova oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi xususiyatlarini belgilaydi: 1. Oilada bolalar tarbiyasi bilan otalar va onalarning baravar shug'ullanishi. 2. Ota va ona bolalarga birdek munosabatda bo'lishi. 3. Oilada ota-onaning o'zini-o'zi tarbiyalashi zaruriyati. 4. Oilada sog'lom axloqiy muhit yaratishning zaruriyati. 5. Ota-onaning oilada bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini his etishi. 6. Oila a'zolarining sog'lom munosabatlarini barpo etish. 7. Oilada bolalar shaxsiyatini hurmat etish, talabchanlikning g'amxurlik bilan uyg'unligi. 8. Oila an'analari hurmat qilish, kelgusi avlodlarga yetkazish. 9. Bola tarbiyasida ota-onalarning obro'sini saqlash. M.Inomova[42]ning oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash borasidagi tadqiqot ishlari oilada bolalar tarbiyasining bir butun tizimini yaratishga yo'nalishlar beradi [2].

Bugungi kungacha shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini o'rganish masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu ishlar, shubhasiz, ta'lim oluvchilar ma'naviyatini ularning ehtiyojlari darajasida shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Biroq, ushbu yo'nalishdagi aksariyat ishlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tushunchasi, uni o'quvchi ongiga yetkazish, u yoki bu

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

o'quv predmeti doirasida ta'lim oluvchilar ma'naviyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuning uchun ham, bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlashning muhim jihatlari, jumladan, ularda oilaviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojlarni tarkib toptirish orqali, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ustida izchil, tizimli tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhimdir.

Buning uchun o'quvchilarda milliy-ma'naviyat, qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish muammosini pedagogik, psixologik, falsafiy jihatdan chuqur tahlil etish lozim. Birinchi navbatda, o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni egallash ehtiyojini vujudga keltiradigan manbalarni aniqlash kerak. Ma'naviy qadriyatlar tushunchasi o'zbek xalqi madaniyati, diniy qarashlarini egallash ehtiyoji bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi, diniy qarashlar va diniy e'tiqod insonni poklaydi, uning ruhiyatini yengillashtiradi. Insonning ichki dunyosi va ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishda Islom dini keng imkoniyatlarga ega. Diniy qarashlarda inson jismi va ruhiyati, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob qarama-qarshi qo'yilib, bu tushunchalar insonni ma'naviy jihatdan takomillashishga chorlaydi. Biz o'z tadqiqotimiz davomida o'quvchi-yoshlar ruhiyati va uning oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish muammolari ustida to'xtalamiz.

O'quvchi-yoshlarda oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish haqida fikr yuritganda, e'tiborimizni, eng avvalo, o'zbek xalqining mentaliteti bilan bog'liq jihatlarga qaratamiz. **Mentalitet** – (lotincha mentalis- aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlarini, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi[3]. Chunki ushbu tushunchaning tahlili o'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash tizimini vujudga keltirish uchun nihoyatda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifatni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Navoiy A. "Mahbub ul-qulub". – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
5. Xasanboyeva G'. "Pedagogik mahorat asoslari". – T.: O'qituvchi, 2015.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

6. Юмашева Н.Ф. "Семейные ценности и их формирование у школьников". – Москва, 2019.
7. UNESCO. "Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives", 2015.
8. Mammadov R., "Moral Education in the Family and School", Baku, 2017.

